



### “QISASI RABG‘UZIY” ASARI YARATILISHIDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING AHAMIYATI

S.X. Bo‘ltakov

Jizzax davlat pedagogika universiteti

“Boshlang‘ich ta‘lim pedagogika

kafedrası” o‘qituvchisi

[sanjarbekbultakov@gmail.com](mailto:sanjarbekbultakov@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17933320>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada turkiy tilda yozilgan asrlardan biri bo‘lgan “Qisasi Rabg‘uziy” asarida mujassamlashgan ulug‘vor g‘oyalar zamiridagi hayotsevarlik tuyg‘usi ko‘p asrlar mobaynida xalqimiz taraqqiyotining eng kuchli va o‘ziga xos jihati bo‘lib kelganligi, hamda asarda keltirilgan xalq og‘zaki ijodi va uning ahamiyati, hamda asardagi xalqona uslublar haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** “Qissasi Rabg‘uziy”, qissa, roman, adabiyotshunoslik, xalq og‘zaki ijodi, turkiy tillar, xalqona usullar, milliy urf-odatlar, etnografiya, o‘zbek xalqi tarixi, badiiy xususiyatlar.

**Аннотация:** В этой статье ощущение жизненной силы, воплощенное в великих идеях, воплощенных в произведении «Кисаси рабгузи», одном из веков написанных на тюркском языке, было самым сильным и неповторимым аспектом развития нашего народа на протяжении многих веков, как а также представленное в произведении народное устное творчество и его значение, а также фольклор в стилях произведения.

**Ключевые слова:** «Повесть о Рабгузи», рассказ, роман, литературоведение, фольклор, тюркские языки, народные приемы, национальные традиции, этнография, история узбекского народа, художественные особенности.

**Annotation:** In this article, the feeling of vitality embodied in the great ideas embodied in the work "Qisasi Rabguzi", one of the centuries written in the Turkish language, has been the strongest and unique aspect of the development of our nation for many centuries, as well as the folk oral creativity presented in the work and its importance, as well as the folklore in the work styles are discussed.

**Keywords:** "The story of Rabguzi", short story, novel, literary studies, folklore, Turkish languages, folk methods, national traditions, ethnography, history of the Uzbek people, artistic features.

O‘tgan asrning 70-90-yillarida “Qisasi Rabg‘uziy” haqida keltirilgan axborot tipidagi ma‘lumotlar, ayrim sharhlar bu asar haqida muayyan tasavvur uyg‘otadi. Jumladan, 1977 - yili chop etilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi” besh jildligining I jildida “Qissasi Rabg‘uziy” haqida keltirilgan ma‘lumotda muxtasar tahlillar ko‘zga tashlanadi. XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida islom dinini qabul qilgan mo‘g‘ul beklaridan biri bo‘lgan Nosiruddin To‘qbug‘aning topshirig‘i va homiyligida yozilgan nasrning yirik namunalaridan biri “Qisasi Rabg‘uziy” hijriy 709 yil, milodiy 1309–1310 yil (ba‘zi manbalarda 1311–yil) yaratilgan deb ko‘rsatiladi. Yuqorida e‘tirof etganimizdek, To‘qbug‘abek Rabg‘uziyga payg‘ambarlar haqida



asar yozishni topshiradi va natijada “Qisasi Rabg‘uziy” yuzaga keladi. Bu asar “Qisas ul–anbiyo”, “Qisas ul–anbiyoi turkiy” nomlari bilan ham mashhur bo‘lgan. Asosan, payg‘ambarlar hayotini hikoya qiluvchi bu asarning o‘ziga xos yaratilish tarixi bor. “Qissasi Rabg‘uziy” o‘zbek adabiyoti tarixida dastlabki nasriy asar namunasi sifatida ham, yuksak ahloqiy-ta’limiy g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi badiiy yodgorlik sifatida ham muhim qimmatga ega. Asar sodda va ravon xalq tiliga yaqin ohang va uslubda yaratilgan. Shu bilan bir qatorda unda turkiy va boshqa xalqlarning ayrim rasm–rusumlari va odatlari ham muallif nazaridan chetda qolmagan: «Xalq orasida rasm bor, do‘st-do‘stga safar qilib yonar bo‘lsa bir hadya, ya’ni bo‘lak ola berurlar». Asardagi insonlarni o‘zaro to‘g‘ri munosabatlarda bo‘lishga, bir-birlariga nisbatan jabr – zulm qilmaslikka, nohaq qon to‘kmaslikka undovchi o‘g‘itlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. «Qissasi Rabg‘uziy» o‘ziga xos betakror badiiy xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Asarda turli mazmundagi qissalar, ma’rifiy didaktik ahamiyatga ega bo‘lgan hikoyatlar, latifalar yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan bo‘lib, hikoyatlarning tarixiy ildizi bir tomondan Tavrotga, Qur’onga va Sharq adabiyotida keng tarqalgan naql va rivoyatlarga borib taqalsa, ikkinchi tomondan, turkiy xalqlar ijodi bilan bog‘liq afsona va rivoyatlarga bog‘lanadi.

“Qissasi Rabg‘uziy” o‘ziga xos betakror badiiy xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Asarda turli mazmundagi qissalar, ma’rifiy didaktik ahamiyatga ega bo‘lgan hikoyatlar, latifalar yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan bo‘lib, hikoyatlarning tarixiy ildizi bir tomondan Tavrotga, Qur’onga va Sharq adabiyotida keng tarqalgan naql va rivoyatlarga borib taqalsa, ikkinchi tomondan, turkiy xalqlar ijodi bilan bog‘liq afsona va rivoyatlarga bog‘lanadi. “Qissasi Rabg‘uziy” asosan, payg‘ambarlar hayoti bilan bog‘liq voqea hodisalarni badiiy lavhalar vositasida ifodalagan rang – barang qissalardan tashkil topgan. Ushbu qissalarning zamiriga xalq og‘zaki ijodida mavjud bo‘lgan ko‘plab hikoyat va rivoyatlarning mazmuni singdirilgan.

Shu o‘rinda qissa janri va uning o‘ziga xos xususiyatlari, xalq qissachiligi haqida to‘xtalib o‘tish lozim. O‘zbek adabiyoti tarixida payg‘ambarlar sulolasiga bag‘ishlangan qator asarlar mavjudki, ularning har qaysisi o‘ziga xos, shu bilan birga umumiy bir mavzuga bag‘ishlanganligi bilan mushtaraklikka ega. Bu asarlarning har biri islom tarixini targ‘ib qilish bilan bir qatorda ulug‘ zotlar obrazlari orqali yuksak insoniy fazilatlarni tarannum etish uchun ham xizmat qilib kelgan. Shular jumlasiga Rabg‘uziyning «Qissasul-anbiyo», So‘fi Olloyorning «Sabot ul-ojiziyn», Mashrabning «Mabda’ un-nur», Huvaydoning «Rohati dil» va Sobir Sayqaliyning «Qissai Sayqaliy» asarlarini kiritish mumkin. Og‘zaki adabiyot ilk shakllangan davrlardan boshlab xalq qissachiligi yuzaga kelgan. Yozma adabiyot vujudga kelishi



bilan qissalarning yozma ko‘rinishlari ham yaratila boshlandi. Bunday qissalarga esa xalq orasida keng tarqalgan afsona, rivoyat va hikoyatlar muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Og‘zaki adabiyot ilk shakllangan davrlardan boshlab xalq qissachiligi yuzaga kelgan. Yozma adabiyot vujudga kelishi bilan qissalarning yozma ko‘rinishlari ham yaratila boshlandi. Bunday qissalarga esa xalq orasida keng tarqalgan afsona, rivoyat va hikoyatlar muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. «Qissasi Rabg‘uziy» asaridan o‘rin olgan qissalar badiiyatida ham xalq og‘zaki ijodi motivlari nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Rabg‘uziy asar bayonida xalq ijodiga xos bir qancha badiiy xususiyatlardan mohirlik bilan foydalangan.

«Qissasi Rabg‘uziy» hikoyatlariga nazar tashlar ekanmiz, ularda rang – barang obrazlarning mavjudligini ko‘ramiz. Rabg‘uziy xalq og‘zaki ijodi namunalariga suyangan holda, turli – tuman obrazlar yaratadi. Chunonchi, ertaklarga xos devu parilar, insu jinslar, turli tabiat jonzoqlari, (chumoli, qaldirg‘och, ari, bulbul va boshqalar) g‘aroyib xususiyatli insonlar tasviri badiiy vositalar yordamida obraz darajasiga ko‘tarilgan. «Qissasi Rabg‘uziy»dagi hikoyatlarda ba‘zi personajlar tasvirida xalq og‘zaki ijodining ta’siri kuchli seziladi. Masalan, Amalqa qabilasi odamlarini tasvirlashda muallif xalq ijodida keng tarqalgan o‘ta kuchli mubolag‘a san‘atini mohirlik bilan qo‘llaydi: Amolqa qabilasining odamlari uzun bo‘ylik, bo‘yi uch yuz qarich, ko‘ksi yetti qarich edi. Bani Isroil ularga o‘n ikkita baquvvat, baland bo‘ylik kishilardan elchi yuboradi. Bu kabi o‘xshatishlar xalq og‘zaki ijodida ko‘plab uchratish mumkin. Asarda xalq ijodiga aloqador bir qancha rivoyat va hikoyatlar yoritib beriladi. Bunga misol qilib Yusuf, Sulaymon payg‘ambar, Luqmoni Hakim to‘g‘risidagi qissalarni olishimiz mumkin.

«Qissasi Rabg‘uziy»dagi qissalarning ko‘pchiligi kompotsizion qurilishi nuqtai nazaridan hikoya ichida hikoya qolipida tuzilgan. Ya’ni umumiy qissa ichida uning mazmunini to‘ldirib, boyitib turuvchi bir qancha mustaqil syujetli hikoyalar ham keltiriladi. Bu hikoyalar yagona qoliplovchi hikoya mazmuniga singdiriladi. Jumladan, yuqorida kuzatganimizdek, Hazrati Dovud haqidagi qissa tarkibidan turli mazmundagi hikoyatlar o‘rin olgan. Ularda asosan, halollik, mehnatsevarlik, insonparvarlik g‘oyalari ilgari surilgan. Masalan, bir hikoyada inson qalbi, ko‘ngil dunyosi bilan bog‘liq ibratli voqea tasvirlanadi:

Dovud payg‘ambar bir xotinni yoqtirib qoladi. Uning erini urushga yuboradi. Maqsad, u o‘lsa xotiniga uylanish edi. Shunday bo‘ladi ham. Xotin agar o‘g‘il ko‘rsam podshohligingni berasan, degan shart bilan Dovudga tegadi. Bir kun ikki aka-uka kelib Dovudga arz qiladi. Biri aytadi: biz aka-ukamiz, akamning to‘qson to‘qqizta sovliq qo‘yi bor, mening bitta qo‘yim bor edi, uni ham tortib oldi.



Dovud aytadiki, mening zamonamda kishi kishiga shunday zulm qiladimi, buni qanday izohlaysan deydi. Dovud o'z savoliga shunday javob eshitadi: «Siz o'zingiz to'qson to'qqizta xotiningiz bo'laturib, ularning ustiga Uryoni g'azotga yuborib, o'ldirib, xotinini oldingiz, bunday ziyoda zulm bo'ladimi?» Dovud anglasa ular farishtalar ekan. Dovud o'zining osiy bo'lganidan xabar topib xudoga nola qiladi. Sahroga chiqib ertayu – kech ko'z yosh to'kadi. Ko'zidan oqqan yoshiga atrofida g'iyohlar o'sib, Dovud orasida ko'rinmay qoladi. Inson suratidagi farishtalar tomonidan uning xotin masalasida qilgan ishi adolatsizlik, zulm ekanligi ta'kidlanadi. Hatto payg'ambardek zot ham gunohlardan holi emasligi ko'rsatiladi. Bunday hol faqat Dovud yoki Sulaymon to'g'risidagi qissalardagina emas, boshqa qissalarda ham uchraydi.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodida yoki yozma adabiyot namunalarining ko'pida yomon xulq-odatlar qattiq qoralanadi, fosh etiladi va asar oxirida bunday shaxslar yo jazolanadi, yoki adolatga yuz o'giradi. Bu qissalarda esa gap payg'ambarlar ustida borayotganligi uchun ularning osiylikka yo'l qo'yganlari biror mo'jiza, yo farishta, yoki Jabroil orqali ogohlantiriladi. Ular gunohi ko'p toat ibodat qilib, xudoga tavba qilgach kechiriladi.

«Qissasi Rabg'uziy» hikoyatlariga nazar tashlar ekanmiz, ularda rang – barang obrazlarning mavjudligini ko'ramiz. Rabg'uziy xalq og'zaki ijodi namunalariga suyangan holda, turli – tuman obrazlar yaratadi. Chunonchi, ertaklarga xos devu parilar, insu jinlar, turli tabiat jonzotlari, (chumoli, qaldirg'och, ari, bulbul va boshqalar) g'aroyib xususiyatli insonlar tasviri badiiy vositalar yordamida obraz darajasiga ko'tarilgan.

Asardagi «Nuh to'foni» qissasi esa bundan ham qiziqarlidir. Hikoyatdagi arining g'o'ng'illashi, qaldirg'ochning odamlar orasida bo'lishi, ilonning qurbaqaga o'chligi bular hayotiy hodisalardir. Shu bilan birga ular haqidagi hikoyatlar o'quvchini zeriktirmaydigan, qiziqarli folklor namunasining o'zginasidir.

«Qissasi Rabg'uziy» asarini kuzatar ekanmiz uning tarkibidagi qissalar zamirida afsonalar mavjudligini ko'ramiz. Rabg'uziy payg'ambarlar haqidagi xalq orasida keng tarqalgan afsonalarni qayta ishlab, ularni badiiy mukammal darajaga ko'targan. Afsonalarda qadim zamonlarda yashagan ajdodlarimiz o'zlariga homiy deb hisoblagan shaxslarni ulug'laganlar va shu bilan o'z diniy e'tiqodlarini ham namoyon etganlar. Masalan, xalqimizda har bir insonning taqdiri tangri tomonidan belgilangan bo'ladi, ammo inson hatti-harakati, niyati bilan o'z qismatini o'zgartirishi mumkin degan tushunchalar bor. Asarda shu fikrni tasdiqlash uchun quyidagi afsona keltiriladi.



«Muso kunlardan bir kuni tangri Taolo oldiga ketayotganida, yo'lda oyoq qo'li yo'q majruh bir odamni ko'ribdi. Odam undan o'zining taqdiriga jannat yoki do'zax yozilganini bilib berishni so'rabdi:

Tangri payg'ambarga: «U odamning oxirgi joyi do'zax bo'ladi. Chunki umr bo'yi uni yemak – ichmakka muhtoj qilmadim, ammo biron marta «Xudoga shukur» demadi, - debdi. Muso payg'ambar qaytishida haligi odam undan javob kutibdi. Payg'ambar bor gapni aytibdi. Shunda haligi odam: «Bo'lmasa yaratgan egamga ayt, men o'lganimda tanamni shunaqa katta qilib yuborsinki, boshqa hech kimga do'zaxdan joy qolmasin, - debdi. Ana shu gapdan keyin bechora banda jannati bo'lgan ekan.

Shunday qilib, Nosiriddin Burxoniddin o'g'li Rabg'uziy “Qissasi Rabg'uziy” asarida xalq og'zaki ijodidagi an'anaviy obrazlardan, badiiy tasvir usuli va uslubidan mahorat bilan foydalangan. Bu esa asarning badiiy mukammal va ta'sirchan bo'lishini ta'minlagan omillardan biridir desak mubolag'a bo'lmaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdushukurov B. “Qisasi Rabg'uziy” leksikasi. Monografiya. – T.: Akademiya, 2008. – 192 b.
2. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. –T.: O'qituvchi, 1976. -664 b.
3. Nosiriddin Burxoniddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy.1-kitob. – T.: Yozuvchi, 1990. B-11
4. Muhiddinov M. Barhayot an'analar. – T.: Fan. 1987. - 79 b.
5. Muhammad payg'ambar alayhis-s-salom qissasi. Hadislar. – Toshkent.: Kamalak, 1991. - 304 bet.
6. Is'xoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. Toshkent: Zarqalam, 2006-128 b.
7. 15.Karomatov H. Qur'on va o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1993. 96 b.
8. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. – T.: Yozuvchi, 1996. - 272 b.
9. Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 2-kitob. –T.: Yozuvchi. 272 b.
10. Safarov, B.N. (2022). PIRLS-XALQARO O'QISH SAVODXONLIGINI O'RGANISH BO'YICHA TARAQQIYOT. Ta'lim faoliyatida innovatsion rivojlanish , 1 (5), 134-138.
11. O'zbek adabiyoti tarixi, besh tomlik. 1-tom, – T.: Fan, 1977. – B. 179-